

IIO XODIMLARINING FUQAROLAR BILAN MULOQOT JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK QONUNIYATLAR

Farfiyev Yoqubjon Athamjonovich

Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasida katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Nashbandova Dinora Shodiqul qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ichki ishlar organlarining xodimlari va ularni fuqaro bilan muloqot jarayoni va ushbu jarayondagi psixologiyasi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *IIO, jamiyat, xodim, qonun, xizmat vazifa, tinchlik, jamoatchilik, kasb, yaxlitlik.*

Bugungi kunda dunyoda hukm surayotgan murakkab va tahlikali sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik muhim vazifa ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Shu bois, keyingi yillarda ichki ishlar tizimini isloh qilishga ustuvor e'tibor qaratilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash maqsadida :

Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga muvofiq Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlandi .

Bunda ichki ishlar organlari xodimlarini «Inson qadri uchun» tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish;

ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume'tirof etilgan odoxloq normalariga so'zsiz amal qilish tuyg'usini shakllantirish bo'yicha ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Yurtimizda xususan, Ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli isloxtalar natijasida psixologik xizmatning fuqarolar hamda xodimlar orasidagi ta'siri oshdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik

ta'minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to'g'risida" gi 185 – sonli buyrug'i qabul qilindi. Ushbu buyrug'da mutaxassis psixologlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ular tomonidan olib boriladigan trenning mashg'ulotlar, xodimning xizmat davomidagi psixologik xolatini aniqlashga yordam beradigan metodik test va so'rovnomalar ro'yxati keltirilgan bo'lib, ushbu metodikalar yordamida xodimlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarni bartaraf etiladi va ularni oldi olinadi.

Mamlakatning har bir fuqarosi ichki ishlar organlari xodimi timsolida o'zining hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini har qanday tajovuzlardan muhofaza qilishga va og'ir damda yordam berishga tayyor bo'lgan himoyachisini ko'rishi hamda o'zining xavfsizligi ta'minlanganligini his qilishi zarur. Ushbu buyruq bilan ichki ishlar organlarining bu boradagi faoliyatini samarali tashkil etish, shuningdek xodimlar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunida belgilangan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish prinsipiga har tomonlama va to'laqonli amal qilishlarini ta'minlash hamda xodimlarning muomala madaniyatini yaxshilash va ularning bu boradagi shaxsiy javobgarligini oshirish maqsad qilib ko'rsatilgan.

Kasb – inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunar hisoblanadi. IIO xodimining kasbiy mahorati bevosita soha faoliyati haqida yetarli darajada bilimlarning mavjud bo'lishi, yuzaga keladigan murakkab va ekstremal vaziyatlardan tezkorlik bilan chiqib keta olishi hamda operativ qaror qabul qilishi, shuningdek zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli, samarali tarzda amalga oshira olishligi kabi muhim sifatlarni o'z ichiga oladi. Kasbga umumiy yoki maxsus ma'lumotlar hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Xodimlarning kasbiy mahoratlarini rivojlantiruvchi eng asosiy va zaruriy sifat bu – ularning o'z mutaxassisligi doirasida yetarli darajadagi sohaviy bilimlarga hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi hisoblanadi. Kasbiy bilimlarning puxta egallash natijasida xodim o'z faoliyati mohiyatini, uning aniq maqsadga yo'naltirilganligi tushunish, to'plangan bilimlarni amaliy jarayonlarda qo'llay olish, ularni takrorlash va qayta ishlash orqali boshqa nazariy asoslar bilan o'zaro bog'lagan holda yangi ko'nikmalarni hosil qilish kabi qobiliyatlarini rivojlanishiga asos yaratadi. Ushbu bilimlarni egallashda har bir xodim diqqat, kreativlik, takrorlash, refleksiya kabi pedagogik mahoratning muhim kategoriyalarini o'zaro uyg'unlashtirishi lozim. Chunki xodim o'z egallagan bilimlarini kasbiy hayotiga bog'lagan holda ko'p qirrali innovatsion metodlar yordamida izchil idrok etib, rivojlantirib hamda ularni kasbiy tajribalari bilan o'zaro samarali aloqasini yo'lga qo'ysagina u o'zining amaliy natijasini ko'rsata oladi. Hozirgi kundagi jinoyatchilikning yangicha, zamonaviy ko'rinishlarining paydo bo'lishi, ularning mohiyati hamda sodir etilish usullarini tubdan o'zgarishi ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashda axloqiy va psixologik kategoriyalarning rolini oshirish dolzarbligini kasb etmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy fazilatlarining shakllanishiga ta'lim va tarbiya jarayonida, shuningdek, ularning butun xizmat faoliyati davomida amalga oshiriladigan kasbiy va psixologik tayyorgarlik jarayonida erishiladi. Avvalo, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy va psixologik tayyorgarligi uchun individual ruhiy

xususiyatlarning o'рни va roli juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z xizmat vazifalarini bajarishda ichki ishlar organlari xodimlari haddan tashqari jismoniy va hissiy stresslarga qarshi turishlari va ularni yengishlari kerak. Bunday vaziyatlarda xodimlarning hayoti va sog'lig'i ko'p jihatdan ularning irodasiga bog'liq. Shular barobarida, xodimlar o'z faoliyati davomida turli xil murakkab holatlar hamda kutilmagan vaqtlarda yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarga duch keladilar. Bu kabi vaziyatlarda xodimlarga ish faoliyatida xavfli hamda zarar yetkazuvchi omillarning mavjudligi, vaqtning hamda zarur dam olishning yetishmasligi, inson psixikasiga ta'sir qiluvchi holatlarga tez-tez ro'baro bo'lish kabi psixogen omillar o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ushbu holatlarda xodimlarning tezkor va xizmat vazifalarini hal qilishga yuqori darajadagi psixologik tayyorgarligini shakllantirish va oshirish, ular bilan psixologik mashg'ulotlarning barcha shakllarini samarali qo'llash, salbiy holatlarni psixologik jihatdan tuzatish orqali xodimlarning, o'ziga yuklatilgan ish vazifalarini iloji boricha samarali bajarish hamda minimal vaqt ichida aqliy qobiliyatlarini samarali namoyon qilishlariga erishilgan bo'ladi.

- muomala madaniyatiga rioya etish ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi;
- ichki ishlar organiga yoki aniq bir xodimga murojaat qilgan har qanday shaxs zudlik bilan qabul qilinishi va e'tibor bilan tinglanishi shart;
- ichki ishlar organlarining barcha darajadagi rahbarlari o'z xodimlarini qo'pollik va loqaydlikka nisbatan muhosasiz munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, o'zaro va fuqarolar bilan qo'pol muomalada bo'lish holatlariga qat'iy munosabat bildirishlari hamda xulq-atvor va muomala madaniyatlari bilan o'zlari shaxsiy namuna ko'rsatishlari zarur.

Ichki ishlar organlari xodimi:

- har doim aholi ko'z o'ngida ekanligini hamda ichki ishlar organlarining obro'si uning xulq-atvoriga va xatti-harakatlariga bevosita bog'liq ekanligini hamda ichki ishlar organlariga murojaat qilgan har bir fuqaroga yordam ko'rsatish aholida ichki ishlar organi faoliyati to'g'risida ijobiy fikrni shakllantirishini yodda tutishi;
- fuqarolar bilan xushmuomala bo'lishi, ularning murojaatlariga xolisona va vijdonan yondashishi, ayniqsa, bolalar, ayollar va qariyalarga alohida e'tibor qaratishi;
- ichki ishlar organlariga olib kelingan har bir inson shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligini yodda tutishi va aybsizlik prezumptsiyasi prinsipiga amal qilishi;
- fuqarolar bilan muloqotda sansalorlikka yo'l qo'ymasligi hamda bevosita o'z vakolatlari doirasiga kirmaydigan murojaatlar yuzasidan fuqarolarni tegishli rahbar yoxud malakali mas'ul xodim bilan bog'lashi;
- ichki ishlar organlariga chaqirilgan (olib kelingan) fuqaroga birinchi navbatda o'zini tanishtirishi, unga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uning chaqirilishi yoxud yo'lda to'xtatilishi sabablarini tushuntirib berishi, uning savol va tushuntirishlariga nisbatan e'tiborli bo'lishi, unga taalluqli masalaga oid qonun hujjatlari normalarini tanishtirishi, basharti fuqaro takroran chaqirilgan hollarda uni zudlik bilan qabul qilishi hamda ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qilganligi uchun minnatdorlik bildirishi zarur.

Xodimlar uchun quyidagilar qat'iyan man etiladi:

- o'zini fuqarolardan ustun qo'yish, ularga nisbatan bepisand munosabatda bo'lish yoki qo'pollik qilish, yolg'on gapirish yoxud boshqa asossiz bahonalar bilan ularni chalg'itish;
- fuqarolarni sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar va muomalaga (haqorat qilish) yo'l qo'yish, ularga nisbatan qonunga xilof ravishda jismoniy kuch ishlatish yoki shunday kuch ishlatish bilan qo'rqitish;
- jismoniy shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqishdan bo'yin tovlash yoki ko'rib chiqishni asossiz rad etish;
- xizmat zarurati bilan ichki ishlar organlariga chaqirilgan (olib kelingan) shaxslarni asossiz kuttirib qo'yish;
- xizmatni olib borish vaqtida, shuningdek xizmat kiyimida spirtli ichimliklar iste'mol qilish.

Ichki ishlar organlariga murojaat qilgan har bir fuqaroning muammosini atroflicha o'rganish va o'z vakolati doirasida qonuniy hal etish har bir xodimning xizmat burchi ekanligi ham ushbu buyruq orqali belgilab qo'yildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, har bir ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida kasbiy mahorat va muomala madaniyatining o'rne, ularning mohirona amalga oshirilishi natijasida aholi bilan munosabatlarda ijobiy jihatlarga erishish xodimning o'z xizmat faoliyatida yuksalishi bilan birgalikda aholimizning ichki ishlar organlari faoliyatidan rozi bo'ladigan, ularni qo'llab-quvvatlaydigan —Xalqchil davlat organi||ga aylantirishda muhim asos vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-10-son qarori.
3. Kriminalogya. Maxsus qism. (I. Ismailov, Q.R. Abdurasulov).
4. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminalagik tavsifi va oldini olish. (B.A.Umirzoqov.)
5. Deviant xul-atvor psixologiyasi. (I.M. Xakimova)